

XALQARO MEHNAT TASHKILOTINING MONITORING MEXANIZMLARI VA O'ZBEKISTONDAGI AMALIY NATIJALARI

Abdug'aprov Shukurjon

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti Tarix fakulteti 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida Xalqaro Mehnat Tashkiloti monitoring mexanizmlari asosida olib borilgan izchil islohotlar natijasida 2013–2015-yillar davomida paxta sektorida bolalar mehnati to'liq bartaraf etildi. 2017–2021-yillar oralig'ida majburiy mehnatga qarshi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, davlat buyurtmasiga asoslangan paxta yetishtirish tizimi bekor qilindi, majburiy mehnat uchun jinoiy javobgarlik joriy etildi hamda mehnat inspeksiyasi vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 2021-yilgi monitoring natijalariga ko'ra, paxta terimida ishtirok etgan 11 mingdan ortiq respondentning 99 foizi mehnatga ixtiyoriy ravishda jalb etilganini bildirgan, majburiy mehnat holatlari tizimli xarakterga ega emasligi tasdiqlangan. 2022-yilda mazkur natijalar xalqaro darajada e'tirof etilib, O'zbekiston paxtasiga nisbatan 2011-yildan buyon amal qilib kelgan global boykot bekor qilindi. Ushbu raqamlar va faktlar Xalqaro Mehnat Tashkiloti monitoring mexanizmlarining O'zbekistonda mehnat huquqlarini ta'minlashda real va barqaror natija berganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Xalqaro Mehnat Tashkiloti, monitoring mexanizmlari, bolalar mehnatini tugatish, majburiy mehnatga barham berish, paxta sektori, O'zbekiston.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti mehnat sohasidagi universal norma va standartlarni ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan BMT ixtisoslashgan agentligidir. Xalqaro Mehnat Tashkilotining yuz yildan ziyod davrda shakllangan monitoring mexanizmlari davlatlarning o'z zimmasiga olgan mehnat majburiyatlarini bajarishini kuzatib boradi. Ushbu mexanizmlarga davlatlar ratifikatsiya qilgan konvensiyalar bo'yicha davriy hisobotlar taqdim etish, mustaqil ekspertlar (Ekspertlar qo'mitasi) tomonidan xulosalar berish, Xalqaro Mehnat Tashkilotining yillik Mehnat konferensiyasida muhokamalar, shuningdek, zarur hollarda maxsus missiyalar va texnik hamkorlik dasturlarini joriy etish kiradi. Bunday nazorat tizimi har bir jiddiy buzilish holatini aniqlab, xalqaro darajada ko'rib chiqilishini ta'minlashga yordam beradi. Ushbu maqolada Xalqaro Mehnat Tashkiloti monitoring mexanizmlarining O'zbekiston Respublikasidagi qo'llanilishi va mustaqillik davridan to hozirgi kunga qadar erishilgan amaliy natijalar tahlil qilinadi. Masalaga ilmiy-tahliliy va qiyosiy yondashilib, Xalqaro Mehnat Tashkiloti va O'zbekiston hamkorligining tarixiy rivoji hamda uning natijalari ko'rib chiqiladi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti o'z a'zo davlatlarining xalqaro mehnat standartlariga rioya etishini ikki asosiy yo'l bilan monitoring qiladi. Birinchisi – normativ nazorat mexanizmi, ya'ni Xalqaro Mehnat Tashkiloti konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan davlatlar muntazam ravishda hisobot topshiradi va Xalqaro Mehnat Tashkiloti Ekspertlar qo'mitasi bu hisobotlarni ko'rib chiqib, tavsiyalar beradi. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining Fundamental (asosiy) konvensiyalari – majburiy mehnatni taqiqlash, bolalar mehnatini tugatish, uyushmalar erkinligi, kamsitmaslik kabi huquqlar bo'yicha – alohida e'tibor bilan nazorat qilinadi. Agar xalqaro kasaba uyushmalari yoki ish beruvchilar uyushmalari tomonidan muayyan davlatda konvensiya talablarining buzilishi haqida shikoyatlar kiritilsa, bu masala Xalqaro Mehnat Tashkilotining yuqori organlari muhokamasiga ham olib chiqilishi mumkin. Xalqaro Mehnat Tashkiloti Bosh konferensiyasining Mehnat standartlari qo'mitasi har yili jiddiy buzilish holatlarini muhokama qilib, tegishli davlatdan choralar ko'rishni talab etadi. Ba'zan esa Xalqaro Mehnat Tashkiloti nizomi asosida maxsus Komissiya yoki yuqori darajadagi missiyalar yuborilishi mumkin. Ikkinchi yo'l – texnik hamkorlik va monitoring dasturlari, bu Xalqaro Mehnat Tashkiloti nazorat tizimi muammo aniqlagan taqdirda, davlatlarga shu muammoni hal etishda yordam berish chorasi sifatida qo'llaniladi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ekspertlari va maslahatchilari joylarda turli loyihalar orqali mehnat qonunchiligi va amaliyotini xalqaro standartlarga moslashtirishga ko'maklashadi. Shu tariqa, normativ nazorat “muammoni diagnostika qilsa”, texnik hamkorlik uni bartaraf etishga qaratiladi.

SSSR davrida O'zbekiston hududiga tatbiq etilgan mehnat konvensiyalari bo'yicha majburiyatlar ham qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston SSSR ratifikatsiya qilgan 8 ta xalqaro mehnat konvensiyasiga tomon bo'ldi. Ular qatorida majburiy mehnatga oid 1930-yildagi 29-son Konvensiya, mehnatda kamsitishni taqiqlovchi 111-son Konvensiya, erkaklar va ayollarga teng ish haqi kafolatlovchi 100-son Konvensiya hamda uyushmalar huquqi va jamoaviy muzokaralar bo'yicha 98-son Konvensiya bor edi. Keyingi yillarda O'zbekiston majburiy mehnatni bekor qilish to'g'risidagi 105-son Konvensiyani, bolalar mehnatining eng yomon shakllariga barham berish bo'yicha 182-son Konvensiyani va mehnatning eng kichik yoshi haqidagi 138-son Konvensiyani ratifikatsiya qildi. Shu tariqa, 2016-yilga kelib O'zbekiston Xalqaro Mehnat Tashkilotining barcha 8 ta fundamental konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan davlatga aylandi (xususan, 2016-yilda uyushmalar erkinligi to'g'risidagi 87-son Konvensiya ham ratifikatsiya qilindi). Bu normativ asos O'zbekistonga xalqaro mehnat standartlarini tatbiq etish bo'yicha rasmiy majburiyat yukladi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti bilan texnik hamkorlik doirasida O'zbekistonda mehnat inspeksiyasini mustahkamlashga ham alohida e'tibor qaratildi. 2019-yilda O'zbekiston mehnat inspeksiyasi haqidagi 81-son va qishloq xo'jaligidagi inspeksiya bo'yicha 129-son Xalqaro Mehnat Tashkiloti konvensiyalarini ratifikatsiya qildi.

Natijada Mehnat vazirligi qoshidagi Davlat mehnat inspeksiyasi kengaytirilib, paxta terimi mavsumida faol tekshiruvlarni o'tkaza boshladi. Agar 2017-yilgi terim paytida bor-yo'g'i 200 ta xo'jalikda tekshiruv o'tkazilgan bo'lsa, 2020-yilga kelib 3000 dan ortiq xo'jalik va tashkilotlarda mehnat inspeksiyasi tomonidan monitoring o'tkazildi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ko'magida mehnat inspektorlari va boshqa mutasaddilar uchun majburiy mehnatni aniqlash va oldini olish bo'yicha treninglar tashkil qilindi. Shu bilan birga, Xalqaro Mehnat Tashkiloti tavsiyasiga ko'ra, 2020-yildan boshlab paxtadan tashqari boshqa sohalarda – qurilish, ipakchilik, xizmat ko'rsatish sektorlarida ham majburiy mehnatga qarshi monitoring kengaytirildi.

2013-yildan boshlab bolalarni paxtaga chiqarmaslik siyosati qat'iy joriy etilib, bir necha yil ichida bu illatga barham berildi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 2017-yilgi kuzatuv hisobotiga ko'ra, paxta terimida bolalar mehnatidan tizimli foydalanish to'xtagan, bolalar maktabga qaytgan va bu borada yutuq barqaror tus olgan edi. Bolalar mehnatining tugatilishi bilan bog'liq holda xalqaro hamjamiyat (jumladan AQSh va Yevropa Ittifoqi) tomonidan O'zbekistonga nisbatan ilgari joriy etilgan cheklovlar qayta ko'rib chiqildi. Misol uchun, 2021-yilda AQSh Savdo vakolatxonasining 2008-yildan beri O'zbekiston mehnat huquqlari bo'yicha savdo preferensiyalari maqomini ko'rib chiqish jarayoni ijobiy yakunlanib, yopildi. Unda O'zbekistonda bolalar mehnatining yo'qligi va majburiy mehnatning jinoiy javobgarlikka tortilishi e'tirof etildi.

Eng katta muammo bo'lib kelgan majburiy mehnat borasida ham tub burilish kuzatildi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti monitoring missiyalari va hukumat islohotlari natijasida paxta yig'im-terimi kampaniyasida yil sayin ko'ngilli terimchilarning ulushi oshib, majburan jalb etilganlar soni kamayib bordi. Agar 2015–2016-yillarda ayrim mustaqil manbalar paxtaga majburan jalb qilinayotgan fuqarolar soni millionlab ekanini ta'kidlagan bo'lsa, islohotlar ketma-ketligi natijasida bu ko'rsatkich keskin pasaygan. Xalqaro Mehnat Tashkiloti va Jahon banki homiyligida 2017-yilda o'tkazilgan reprezentativ so'rov natijasida 2,6 million nafar paxta terimchisining aksariyati (taxminan 85–90%) ko'ngilli ravishda ishlagani ma'lum bo'ldi. Keyingi yillarda bu ulush yanada ortdi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 2021-yilgi yakuniy hisobotiga ko'ra, O'zbekiston 2021-yil paxta mavsumida tizimli ravishda majburiy mehnatdan xoli bo'ldi. Mamlakat bo'ylab o'tkazilgan 11 mingdan ziyod terimchi bilan suhbatda 99% ishtirokchilar paxtaga hech qanday majburlashsiz chiqqanini bildirgan, majburiy mehnat elementlari deyarli kuzatilmagan. Faqat atigi 1% respondent bilvosita yoki bevosita tazyiq bo'lgani haqida gumonini bildirgan xolos (ular asosan mahalliy darajadagi bosimlar haqida so'z yuritgan). Bu ko'rsatkichlar avvalgi yillardagi 4–5% majburan jalb etish holatlaridan ham past ekanini anglatadi. Shu tariqa, Xalqaro Mehnat Tashkiloti ekspertlari O'zbekiston paxta sektorida davlat tomonidan tizimli majburiy mehnatga barham berilganini rasman e'tirof etdilar.

Mazkur yutuq ortida iqtisodiy va boshqaruv islohotlari yotibdi. Xususan, 2020-yilda hukumat uzoq yillar davomida paxta yetishtirishda qo'llanilgan majburiy davlat buyurtma (kvota) tizimini bekor qildi. Fermer xo'jaliklariga bozor tamoyillariga o'tish imkonini beruvchi klaster tizimi joriy etildi. Paxta terimchilarining mehnat haqi sezilarli darajada oshirildi – 2017–2021 yillar davomida terim uchun to'lov miqdori o'rtacha 3-4 baravarga ko'tarilgan. Natijada paxtani o'z ixtiyori bilan terishga ishchi kuchi topilishi osonlashdi; ayrim yillarda hatto ishchi kuchining ortiqchaligi kuzatilib, hosil rekord darajada tez yig'ildi. Shuningdek, mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha ham qator qadamlar qo'yildi: dalalarda ichimlik suvi, tibbiy yordam, transport bilan ta'minlash masalalari yo'lga qo'yildi, yotoq va sanitariya sharoitlari yaxshilanmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkiloti 2020–2021 yillar monitoringida terimchilarning aksariyati oldingi yilga nisbatan mehnat sharoitlari yaxshilangani haqida ma'lumot berishgan. Bu o'zgarishlar majburiy mehnatga ehtiyoj qolmasligining muhim omiliga aylandi.

Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy muloqot sohasida ham ijobiy siljishlar mavjud. Avvallari mustaqil kasaba uyushmalari yoki nodavlat tashkilotlar mehnat huquqlari bilan bog'liq muammolarni ochiq ko'tarishi qiyin edi. Hozirga kelib esa Xalqaro Mehnat Tashkiloti ko'magida tuzilgan Tripartit komissiya (hukumat, ish beruvchi va kasaba uyushmalari uch tomonlama maslahatlashuv organi) mehnat sharoitlarini muhokama qilib, takliflar bermoqda. 2016-yilda O'zbekiston uyushmalar erkinligi to'g'risidagi 87-son Konvensiyani ratifikatsiya qilgani mustaqil kasaba uyushmalari tuzish yo'lini ham ochib berdi. 2021-yilda ilk bor ayrim fuqarolik jamiyati faollari terim jarayonida mustaqil kuzatuvchi sifatida ishtirok etish uchun o'qitildi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti bunday ijtimoiy muloqot elementlarini mustahkamlash orqali kelgusida majburiy mehnatning ildizini quritishda davom etishni tavsiya qilmoqda.

Erishilgan natijalar xalqaro miqyosda keng e'tirof etilmoqda. 2021-yilda Yevropa Ittifoqi O'zbekistonni inson huquqlari, jumladan mehnat huquqlari bo'yicha majburiyatlarini inobatga olgan holda o'zining "GSP+" imtiyozli savdo tizimiga qo'shdi. 2022-yil mart oyida majburiy mehnatga qarshi kurashda ko'p yillik kompaniya olib borgan xalqaro "Cotton Campaign" koalitsiyasi O'zbekiston paxtasiga nisbatan 2011-yildan beri amal qilib kelgan global boykot chaqirig'ini rasman bekor qildi. Xalqaro mehnat tashkiloti ushbu boykotning bekor qilinishini olqishlab, O'zbekiston hukumati, ish beruvchilari va kasaba uyushmalarini jahonda majburiy mehnatni tugatish yo'lida erishilgan tarixiy yutuq bilan tabrikлади. Darhaqiqat, qisqa davr ichida O'zbekiston majburiy mehnat muammosini hal etib, "majburiy mehnatdan xoli paxta" yetishtiruvchi davlatga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev bu muvaffaqiyatni "bizning islohotlarimizning asosiy yutuqlaridan biri" deya e'tirof etib, endilikda har yili kuzda millionlab bolalar, o'qituvchilar va shifokorlar dalalarda emas, balki o'z ish joylarida bo'lishini ta'kidлади.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti monitoring mexanizmlarining O'zbekistondagi qo'llanilishi yaqqol misol sifatida mamlakatning so'nggi o'n yillikdagi mehnat sohasidagi ulkan o'zgarishlariga turtki bo'ldi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining normativ nazorati davomida aniqlangan bolalar mehnati va majburiy mehnat muammolari xalqaro darajada ko'tarilib, natijada hukumat ularni bartaraf etish bo'yicha qat'iy choralar ko'rdi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining texnik hamkorligi va mamlakat ichidagi islohotlar uyg'unligi tufayli qisqa muddatda bolalar mehnati to'xtatildi, majburiy mehnat tizimi bekor qilinib, o'rniga bozor munosabatlariga asoslangan, ixtiyoriy mehnatga rag'batlantiruvchi tartib joriy qilindi. O'zbekiston mehnat munosabatlarida erishilgan bu ijobiy natijalar Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan ham, xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e'tirof etilib, mamlakatning inson huquqlariga rioya etuvchi imidjini mustahkamladi. Albatta, mehnat sohasida davomiy yutuqlarni saqlab qolish va kelgusida takomillashtirish uchun O'zbekistonning Xalqaro Mehnat Tashkiloti bilan hamkorligi izchil davom etishi lozim bo'ladi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti monitoring mexanizmlari bundan keyin ham mehnat huquqlarining buzilishini oldini olishda va yangi sohalarida (masalan, qurilish, xizmat ko'rsatish sektori) munosib mehnat sharoitlarini targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston tajribasi ko'rsatdiki, xalqaro mehnat standartlariga rioya etish, aslida, ijtimoiy adolat va iqtisodiy islohotlar uchun zarur omildir – mehnat huquqlarini ta'minlash orqali mamlakat xalqaro savdo va hamkorlikda ham muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Xalqaro Mehnat Tashkiloti va O'zbekiston hamkorligining ushbu davri ushbu tamoyilning amaldagi isboti sifatida tarixda qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2022 – 416-bet.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. — Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 408-bet.
3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — Toshkent: O'zbekiston, 2017. — 32-bet.
4. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — Toshkent: O'zbekiston, 2003. — 304-bet.
5. Saidov A. X. Inson huquqlari va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: Adolat, 2019. — 320-bet.
6. Ismoilov B. I. Mehnat huquqi: darslik. — Toshkent: Yuridik adabiyotlar, 2021. — 356-bet.
7. Xudoyberganov A. A. O'zbekistonda mehnat munosabatlarining huquqiy asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. — 240 bet.
8. Abdullayev R. A. Bolalar huquqlari va ularni himoya qilishning xalqaro mexanizmlari. — Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020. — 280-bet.